

KREATIVLIK VA SHAXS SIFATLARI

Xudaynazarova Sanobar Ruziboyevna

Osiyo xalqaro universiteti

Pedagogika va psixologiya – ta’lim yo‘nalishi magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada kreativlik va uning shaxs xususiyatlari bilan o‘zaro integratsiyasiga oid ilmiy nazariy ma’lumotlar tahlili keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Kreativlik, yangi malakaga ochiqlik, bag‘rikenglik, bilim, yaratuvchanlik, ilmiy ijod, gomeostaz.

Аннотация: В данной статье представлен анализ данных научной теории о творчестве и его взаимной интеграции с личностными качествами.

Ключевые слова: креативность, открытость к новым навыкам, толерантность, знания, креативность, научное творчество, гомеостаз.

Annotation: In this article presents an analysis of the data of the scientific theory of creativity and its mutual integration with personal qualities.

Keywords: creativity, openness to new skills, tolerance, knowledge, creativity, scientific creativity, homeostasis.

Ma’lumki, shaxsdagi turli sifatlar va xususiyatlar uning jamiyatdagi o‘rnini va uning kamolotiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Yuqori natijali ijodiyotga ahamiyatli darajada ko‘maklashuvch shaxs sifatlari bu – yangi malakaga ochiqligidir.

U shaxsnинг katta beshlik (big five) deb nomlanuvchi shaxsning sifatlari tarkibiga kirib, ko‘plab ijtimoiy madaniy sharoitlarda bajarilgan ko‘p sonli tadqiqotlarda ularning alohida ajratilganligi asoslab berilgan. Bu sifat inson atrofida paydo bo‘layotgan yangilikni idrok etishga va o‘zlashtirishga tayyor ekanligini yaqqol namoyon etadi, reallik va tasavvurlar tizimi o‘rtasida qarama-qarshiliklar vujudga kelganda esa, reallikni idrokini buzmagan holda tasavvurlar tizimini o‘zgartirish kerak. Undan tashqari, yangi tajribaga insonlarning ochiqligi qizuquvchanligi va ma’lum o‘yin qaroqlik bilan tavsiflanadi. Badiiy yoki ilmiy ijodda ahamiyatli muvaffaqiyatlarga erishgan insonlar tarjimai hollarini o‘rganganda, atrofdagilar ularni katta bolalar sifatida tasvirlaydilar. Bu yangilikka ochiqlikning yuqori darajasini tashqi ko‘rinishidir. Bunday holat skepsis (shubhalilik), ortiqcha pragmatiklik va jiddiylik bilan uyg‘unlashmaydi. Aynan shuning uchun, kreativlikni rivojlantiruvchi pedagogik-psixologik texnologiyalar o‘yin tarzida bo‘lib, faollikni «huddi o‘shanday» holini nazarda tutadi.

O‘rganilgan odatiy tafakkur obrazlardan voz kechishdan tashqari, ijodiyot egiluvchanlikni, noan’anaviy assotsiatsiyalarni qidirish malakasi, **noma'lumlikka nisbatan tolerantlikni** (bag‘rikenglikni) talab etadi. Kreativ insonlar harakatlarning aniq qoidalari, ma’lumotlari yetarli bo‘lmaganda, vaziyatni rivojlanishi kelajakdagagi istiqbollari noaniq bo‘lganda ham, o‘zlarini qulay va erkin his qiladilar. Kreativlik namoyon bo‘lish ko‘rsatkichlari sust bo‘lgan insonlar bunday vaziyatlardan qochishga urinib, noqulaylik, havotirni his qiladilar.

Yuqorida aytiganidek, ijodiy insonlarni katta bolalarga qiyosi qilinishi ko‘p uchraydi, ularning o‘yin qaroqligini ko‘rib, hech qachon ulg‘ayishmagan «atrofda sodir etilayotganlarni jiddiy qabul qilmasdan, o‘zlarining tabiiy o‘zligini saqlab qolishlaridir» [1].

Ta’kidlash lozimki, har qanday kreativlik shaxsiy sifatlar bilan uyg‘unlikda uning namoyon bo‘lishiga kafolat bo‘lmashdan, inson iste’molchilik xususiyatlari ega bo‘lgan ijodiy faoliyat mahsulotlarini yaratadi. Shunday variantning ham ehtimoli mavjudki, kreativlik «o‘zidagi buyum» sifatida qolib, real hayot bilan bog‘lanmagan faqatgina orzularda namoyon bo‘ladi. Bu borada psixologlar «sodda» va «madaniy» kreativlik haqida gapiradilar (Yurkevich, 1996). Birinchi holatla bu ma’lum bir yangilikni yaratishda «hom»lik bo‘lib, aksariyat bolalarda bor, biroq katta bo‘lgan sari, bu xususiyat sustlashib boraveradi. Ikkinchisida esa, bu - tajriba va intellektual qobiliyatlarga asoslangan mahsuldar ijodiyot qobiliyati.

Aksariyat insonlar tanish va nazorat qila oladigan vaziyatlarda, u yoki bu natijaga erishish uchun qanday hatti-harakatlani amalga oshirish mumkinligini aniq bilsagina, o‘zlarini quay his qiladilar. Bunday insonlar yangi, noodatiy vaziyatlarga tushib qolsalar noqulaylik va havotirni hissini tuyadilar. Ularda ushbu vaziyatda chiqish yoki uni tizimlashtirish, hamda aniq va oldindan ayta olish mumkin bo‘lgan holatga olib kelish ehtiyoji paydo bo‘ladi. Bunday tizimlashtirish, ko‘p holatlarda vaziyatni o‘zgarishiga emas, (ko‘p holatlarda tamoyilan mumkin emas) balki uni idrok etish o‘zgarishiga olib keladi. Ushbu vaziyatni “ustiga” mantiqiy asoslarsiz o‘tgan hayotiy tajriba va mavjud yorliqlar (stereotiplar) va h.k.lar “joylashtiriladi” natijada vaziyat aslidanda ko‘ra, tizimlashgan va oldindan ayta oladiganday idrok etilishi boshlaydi. Boshqa tomondan inson yorliq (stereotip) yoki analogiya (taqqoslash) asosida biron-bir boshqa vaziyat bilan qanday oqibatlarga olib kelishini tahmin qiladi (va bunday tahminlar har doim ham asosli bo‘lib chiqmaydi). Boshqa tomondan bunday idrok unda o‘ziga xos «ko‘rlik»ni yaratib, vaziyatga va uning natijalariga ta’sir eta olish imkoniyatlarini ko‘rishga to‘sinqilik qiladi. Bu qoliplik (shablonlik), ijodiyotsiz dunyoni idrok etishga to‘g‘ri keladi.

K. Rodjers (1994) yaratuvchanlik ijodiyotga ko‘maklashuvchi ikki asosiy psixologik shartini shakllantirdi.

1. Psixologik xavfsizlikka, individning shartlarsiz qadriyat sifatida tan olinishi, uning mehnati natijasini tashqaridan baholashning yo‘qligi yevaziga erishiladi.

2. Psixologik erkinlik fikrlar, hissiyotlar va holatlarning izhor etish orqali erishiladi.

Ijodiy bo‘limgan insonga, gomeostaz, ichki va tashqi muhit muvozanatlashganlik holati eng maqbuli hisoblanadi. O‘z shaxsiy tashabbus bilan bunday «muvozanat»da bo‘lgan inson, uni o‘z tashabbusi bilan o‘zgartirishga harakat qilmaydi. Agar hayotiy vaziyatlar o‘zgarib borsa, unda inson faolligi ushbu «muvozanatni» tiklashga qaratilgan bo‘ladi, uning hartti-harakati vaziyatni faol o‘zgartirish emas, balki unga moslashishdan iborat bo‘ladi. Unday insonlar quyidagi tamoyillar bilan ish tutadi: «Muammolarni vujudga kelish tartibi bilan hal qilish» [3].

Ijodiy insonlar tashqi muhit bilan uyg‘unlikda bo‘lishga intilmaydilar, balki aksincha, o‘zi va ularni o‘rab turuvchilar o‘rtasida «muvozanatni» faol buzishga moyillik ko‘rsatadilar. Ular muhitga passiv moslashmasdan, balki faol ravishda qayta shakllantirishga moyilliги mavjud. Ta’kidlash mumkinki, ijodiyot moslashuvchanlikning qarama-qarshiligidir: u o‘zi tashqi sharoitlariga moslashuv emas, balki ularning faol o‘zgarishini namoyon qiladi.

Xulosa: Umuman olganda ta'kidlash lozimki, ijodiyotni asosida yotuvchi psixologik shart-sharoitlar murakkab, tizimli tavsifnomalarga ega bo'lib, o'z ichiga ijodiyotni xulq-atvorda namoyon etilishida imkoniyatlar yaratuvchi shaxsiy sifatlar jamlanmasidir. Bu borada ijodiy qobiliyatlarning intellektual yoki shaxsiy tavsifnamalarning biriga reduksiyasi adekvat bo'lib ko'rinnmaydi.

Xulosa o'rnida insonni ijodiy salohiyatini rivojlantiruvchi shart-sharoitlarni keltirib o'tamiz (Hayes, 1978; ibora. Solso, 1995, b. 480)[4],[5].

Bilim va malaka bazasini rivojlantirish, asosida ijod qila olish imkonini beruvchi axborotlar zahirasini yig'ish va tizimlashtirish, shuningdek, ushbu faoliyat turiga muvofiq keluvchi zaruriy malakalarini takomillashtirishdir.

Ijod qilishga undovchi muhitni yaratish. Ushbu muhitning kalit tavsifi - g'oyalarni vujudga kelish bosqichida tanqiddan yiroq bo'lish, muammoni yangi tomondan ko'rishga halal qilayotgan ichki to'sqinlarni yengishga imkon beradi.

Ijod qilishga undovchi muhitni yaratish. Vazifani ijodiy yechimini boshqa bir muammoli vaziyatlar o'rtasida, ilk qarashda umumiylit bo'lmasada, analogiyani qidirib topganda, yechim imkoniyatlari sezilarli darajada o'sadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Stephen King books in order explores books, from Carrie, published back in 1974 ... Faithful (Nonfiction: 2005); The Colorado Kid (Novel: 2005) ...
2. Yurkevich V.S. Iqtidorli bola: xayol va haqiqat: O'qituvchilar va ota-onalar uchun kitob. - M.: Ta'lim, O'quv adabiyoti, 1996 yil.
3. Карл Рэнсом Роджерс (англ. Carl Ransom Rogers; 8 января 1902 — 4 февраля 1987) ... М. : Издательская группа «Прогресс», «Универс», 1994. — 480 с.
4. Children's Visual Descriptions Jean Hayes Pages: 1-15 First Published: January 1978
5. Solso, R. L., & Massaro, D. W. (Eds.). (1995). The science of the mind: 2001 and beyond. Oxford University Press. Abstract. What would happen ...